

2026-yil 6-aprel

VIII Toshkent xalqaro marafoni o'tkazildi



Poytaxtimizda joriy yilning 5-aprel kuni VIII Toshkent xalqaro marafoni bo'lib o'tdi. Unda professional va havaskor sportchilar, chet ellik mehmonlar ishtirok etishdi.



Ushbu marafonda “O‘zkimyo sanoat” AJning faol va tashabbuskor xodimlaridan iborat havaskor sportchilar ham faol ishtirok etib, sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlash borasida ham ibrat ko‘rsatishdi.

VIII Toshkent xalqaro marafoni minglab yurtdoshlarimizni bir maqsad — sport va sog‘lom hayot tarzi g‘oyasi atrofida birlashtirdi.



Bu kabi tadbirlar nafaqat sport bayrami, balki birdamlik, faollik va ijobiy kayfiyatni mustahkamlovchi omil sifatida ahamiyat kasb etmoqda.





source:

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/viii-toshkent-xalqaro-marafoni-o-tkazildi>